

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/29.10.2021.K.60.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TO‘XTABOYEV NOZIMJON XOSHIMJONOVICH**

**AMARANTNING YANGI MAHALLIY NAVLARI ASOSIDA BIOLOGIK  
FAOL OZIQ-OVQAT QO‘SHILMALARI OLISH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 - Tovarlar kimyosi**

**14.00.41 - Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2023**

**UO‘T 547.91:615.322**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of the abstract of dissertation doctor of science**

**To‘xtaboyev Nozimjon Xoshimjonovich**

Amarantning yangi mahalliy navlari asosida biologik faol oziq-ovqat  
qo‘shimchalari olish va ularni sinflash ..... **3**

**Тухтабоев Нозимжон Хошимжонович**

Получение биологически активных пищевых добавок на основе новых  
местных сортов амаранта и их классификация ..... **29**

**Tukhtaboev Nozimjon Hoshimjonovich**

Obtaining biologically active food supplements based on new local  
varieties of amaranth and their classification ..... **55**

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... **58**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/29.10.2021.K.60.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TO‘XTABOYEV NOZIMJON XOSHIJONOVICH**

**AMARANTNING YANGI MAHALLIY NAVLARI ASOSIDA BIOLOGIK  
FAOL OZIQ-OVQAT QO‘SHILMALARI OLISH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 - Tovarlar kimyosi**

**14.00.41 - Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2023**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/K151 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Asqarov Ibrohim Rahmonovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Xo'jayev Vahobjon Umarovich**  
kimyo fanlari doktori, professor  
**Mamatova Irodaxon Yusupovna**  
kimyo fanlari doktori, dotsent  
**Shomuratov Shavkatbek Abdug'aniyevich**  
kimyo fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot: Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti xuzuridagi DSc.03/29.10.2021.K.60.05 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "12" 09 soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100 Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel.: (99877)223 88 30, faks: (99874) 223 84

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks: (99874) 2238433) e-mail: [notu.nt@umail.uz](mailto:notu.nt@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "23" 08 kuni tarqatildi.  
(2023 yil "23" 08 daqi "23" raqamli reyestr bayonnomasi)



**X.Isaqov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, tex.f.d., professor

**M.M.Mo'minjonov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, k.f.d.

**Sh.V.Abdullayev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
k.f.d., professor

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda turli iqlim sharoitlarida o'sadigan o'simlik navlarining kimyoviy tarkibini aniqlash, ularni qayta ishlab inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini olish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada, ozuqabob o'simliklarning yangi navlari asosida sintetik dori vositalarining o'rnini to'ldiradigan, tarkibida inson organizmida uchraydigan turli kasalliklarni davolash va oldini olish xususiyatiga ega biologik faol birikmalar, makro- va mikroelementlar saqlagan tabiiy, zararsiz, ekologik toza oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish hamda xalq tabobatida qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Jahonda inson organizmidagi markaziy asab va yurak-qon tomir tizimi bilan bog'liq murakkab kasalliklarni davolashda sintetik dori vositalari va tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, markaziy asab tizimi faoliyatini normallashtiradigan, qonni kislorod bilan to'yinishiga yordam beradigan, turli saraton hujayralarining rivojlanishini to'xtatadigan, organizmni yoshartiradigan, immun tizimini mustahkamlaydigan tabiiy kimyoviy birikmalar saqlagan o'simlik navlarini aniqlash, ular asosida kasalliklarini halq tabobati usullari bilan davolash va oldini olishda sintetik dori vositalariga yordam sifatida qo'llaniluvchi, tarkibida alkaloid, flavanoid, terpenoid kabi tabiiy birikmalar, hamda yod saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish, ishlab chiqarish, TIF TN bo'yicha sinflash, hamda amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda inson organizmidagi yurak-qon tomir, asab tizimi bilan bog'liq kasalliklarni oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklar asosida tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqilib, kimyoviy tarkibi asosida sinflash borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> "oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish" bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, amarant o'simligining yangi navlari asosida tarkibida inson organizmi uchun foydali birikmalar saqlagan, asab tizimi, yurak-qon tomir kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatini namoyon qiluvchi birikmalar saqlagan, organizm immunitetini ko'taruvchi, bezarar, tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish, shuningdek, ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalari o'rganish hamda TIF TN bo'yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 oktyabrdagi PQ-3968-son «O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017 yil 7 noyabrdagi PF-5229-son "Farmatsevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Dorivor o'simliklardan biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari olish va ularning tadqiqotiga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Department of Family Medicine, University of Idaho, Division of Pharmacognosy and Natural Products Chemistry, The Ohio state university (AQSH), Department of Pharmacy, Dalhousie University, Halifax, Nova Scotia (Kanada), Department of Medical and Surgical Sciences-Endocrinology, University of Padua, (Italiya), Departments of Community Medicine, Gastroenterology and Radiology, University of Sheffield (Angliya), Medical Clinic University Hospital Kassel (Germaniya), Pharmacological Laboratory, University of Amsterdam (Niderlandiya), Laboratoire de Biochimie Générale et Nutritionnelle, CHU Purpan, Toulouse (Fransiya), School of Traditional Chinese Medicine, Southern Medical University, Department of Rheumatology (Xitoy), Department of Cardiovascular Surgery, Teikyo University (Yaponiya), Department of Veterinary Medicine, King Saud University (Saudiya Arabistoni) Velayat Clinical Research Development Unit, Department of Internal Medicine (Eron), Rossiya FA Ufa ilmiy markazi, Sevastopol universiteti Politexnika instituti (Rossiya), Dorivor vositalar va tibbiyot mahsulotlari davlat ilmiy markazi (Ukraina), O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent farmatsevtika instituti, O'zbekiston Respublikasi FA Bioorganik kimyo instituti, O'simlik moddalari kimyosi institutida olib borilmoqda.

Dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash va qayta ishlash tadqiqotlari natijasida bir qator natijalar olingan: jumladan, shifobaxsh o'simliklar asosida dorivor birikmalar olingan (Technische Universitat Chemnitz, Faculty of Natural Sciences, Institute of Chemistry Germaniya); dorivor o'simlik navlari tarkibidagi makro- va mikroelementlarning miqdorini aniqlash usullari ishlab chiqilgan (Dipartimento di Chimica Industriale "Toso Montanari", Università di Bologna, Italiya); shifobaxsh o'simliklar asosida mikroelementlarga boy tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari olingan (Bialystok University of Technology, Faculty of Civil Engineering and Environmental Sciences, Department of Chemistry, Polsha); tarkibida tabiiy biologik faol birikmalar saqlagan o'simlik ekstraktlari bilan oziq-ovqat mahsulotlarini boyitish texnologiyasi yaratilgan (Department of Inorganic Chemistry, Faculty of Pharmacy, University of Medicine and Pharmacy, Ruminya); Antivirus ta'sirga ega birikmalarni o'simliklardan ajratib olish usullari

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <http://www.firp.state.fl.us>, <http://www.dobersek.comm>, <http://www.ichp.pl>, <http://www.csj.jp>, <http://en.ustc.edu.cn>, <http://chem.iitm.ac/in>, <http://dmpe.aut.ac.ir>, <http://www.niuf.ru>, <http://www.ionx.uz> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

ishlab chiqilgan (State Key Laboratory of Coordination Chemistry, Nanjing University (Xitoy); ayrim mahalliy o'simlik navlari tarkibidagi birikmalarning tarkibi va tuzilishi aniqlangan (O'simlik moddalar kimyosi instituti, O'zbekiston).

Dunyoda shifobaxsh o'simlik navlari asosida inson organizmidagi yurak-qon tomir, asab tizimi bilan bog'liq kasalliklarni davolash va oldini olish xususiyatiga ega tabiiy preparatlar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha qator ustivor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, shifobaxsh o'simliklar tarkibidan biologik faol moddalarni ajratib olish; olingan birikmalarning tarkibi va tuzilishini fizik-kimyoviy metodlar yordamida aniqlash, ularning biologik faolligi va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash; o'simliklar tarkibidagi turli biologik faollikka ega bo'lgan flavonoidlarni aniqlash va ajratib olish; oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibida makroelementlar saqlagan o'simlik ekstraktlari bilan boyitish; shifobaxsh o'simlik konsentratlari va ekstraktlari yordamida ayrim yurak-qon tomir, asab tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish; shifobaxsh o'simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalar asosida oziq-ovqat qo'shilmalari olish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi:** Dorivor o'simliklardan biologik faol moddalar ajratib olish, biologik faol qo'shilmalar, oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish bo'yicha jahonda ko'plab olim va amaliyotchilar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Jumladan, Inge S. Fomsgaard, Bente Laursen, Rosa de Troiani, Jon Delano-Frier, Dagmar Janovská, Rodrigo Labouriau (Fransiya) Future-Food loyihasi doirasida amarantning 12 ta navi urug'larida fitokimyoviy moddalarni; Milos Beran, Marian Urban, Petr Molik, Lubomir Adamek, Dusan Travnicek, Kristina Matusova (Chyexiya) amarant uni oqsillarini, Daniela Benedikova, Iveta Cicova (Slovakiya) amarant genlarini, M.Leon-Camacho, D.L.Garcia-Gonzalez, R.Aparicio (Ispaniya) amarantning oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda barqaror muqobil o'simlik sifatida uning nutritsevtik sifatlariga ta'sir qiluvchi fenol kislotalari va ularning hosilalari, flavonoidlarini, M.Murkovic, S.Lechner, A.Pietzka, M.Bratacos, E.Katzogiannos (Gretsiya) amarant donidagi kalsiy, magniy, temir, kaliy va rux miqdorini, Gabriel Alexandre-Iturbide (Meksika) Meksikada amarant yetishtirishni, Selene Niveyro, Estela Baudino, Lukas Falkensteyn, Klaudio Saenz (Argentina) Markaziy Argentinadagi amarant hosilini artropodlarini, Y.Cai, M.Sun, H.Corke (AQSH) amarant betalainlarining antioksidantlik xususiyatlarini, A.N.Bondarenko, YE.Azeyman, I.O.Shvayger (Ukraina), P.F.Kononkov, V.K.Gins, M.S.Gins, V.M.Menshov, G.G.Lisenko, O.V.Vasilyeva (Rossiya) amarant betatsianinlari antioksidantligi va mexanizmlarini, I.R.Asqarov, M.M.Mo'minov, K.S.Safarov, F.A.Umarova, A.A.Abduraxmanov, F.M.Nizomitdinov, Sh.K.Xidoyatova, N.K.Yuldasheva, N.T.Ulchenko, N.V.Korableva, S.D.Gusakova, Sh.Sh.Sagdullayev, K.Toxtaxunov (O'zbekiston) amarant va boshqa dorivor o'simliklar, ulardan olinadigan mahsulotlar, ularning kimyoviy tarkibi, ayrim komponentlarining biokimyoviy jarayonlardagi ishtiroki bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Bugungi kunga qadar biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalar sifatida o'simliklarning turli vegetativ organlari tabiiy holatida, ekstraktlar shaklida, alohida biologik va kimyoviy substratlar holida amaliyotda qo'llanishi yuzasidan ayrim tadqiqotlarda ma'lumotlar keltirilganiga qaramay, amarant va uning komponentlari hamda boshqa dorivor o'simliklar tarkibiy qismlaridan yangi mahsulot – biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarning o'ziga xos brendlarini yaratilishi borasida deyarli chuqur izlanishlar olib borilmagan hamda ularga kimyoviy tarkibi asosida Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) bo'yicha yangi kod raqamlari ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqot ishi dorivor o'simliklar, xususan, mahalliy sharoitlarga introduksiya qilingan amarantning yangi "O'zbekiston-M", "Ulug'nor", "Marhamat" navlari, steviya, sut qushqo'nmasi, mahsar o'simliklarining tarkibiy qismlari bo'lgan urug'i, moyi, barglari, gulto'plari asosida markaziy asab tizimining faolligini saqlab turish, qonni kislorod bilan to'yintirishga yordam berish, xazm qilish traktining normallashtirishiga, ishtahani ochish va xazm qilishni yaxshilash, jigar va o't pufagini, ichak faoliyatini yaxshilash, meteorizm va spazmlarni kamaytirish, immun tizimi faolligini, atrof-muhit noqulay omillariga organizm qarshiligini oshirish, infeksiyalarga qarshi himoya kuchlarini rag'batlantiruvchi, yallig'lanish, shamollashni rivojlanishini bartaraf etuvchi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash asosida TIF TN bo'yicha yangi tovar kodlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Xalq xo'jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqish va sinflash" tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** amarantning yangi mahalliy navlari, steviya, sut qushqo'nmasi, mahsar asosida yangi turdagi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish, ularning kimyoviy tarkibi va xossalari asosida TIF TN bo'yicha yangi kod raqamlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Amarantning yangi mahalliy navlari, steviya, sut qushqo'nmasi, mahsar dorivor o'simliklarining kimyoviy tarkibini biologik faollik nuqtai-nazaridan taxlil qilish;

Yangi oziq-ovqat qo'shilmalari tayyorlash uchun amarant, steviya, sut qushqo'nmasi, mahsar vegetativ qismlarining tarkibiy miqdorlari optimal nisbatlarini aniqlash;

Markaziy asab tizimining faolligini saqlab turish uchun qonni kislorod bilan to'yintirishga yordam beradigan, ovqat hazm qilish traktining normallashtirishiga ijobiy ta'sir etadigan, ishtahani yaxshilaydigan "SKVALEAMIN NEO" oziq-ovqat qo'shilmasi yaratish;

Jigar va o't pufagining funksiyalarini qo'llab-quvvatlaydigan, ichak faoliyatini yaxshilaydigan va meteorizm hamda spazmlarni kamaytiradigan "SKVALEMARIN" oziq-ovqat qo'shilmasi yaratish;

Immun tizimining faolligini va atrof-muhitning noqulay omillariga organizmning qarshiligini oshiradigan, organizmning infeksiyalarga qarshi himoya kuchlarini rag'batlantiradigan va yallig'lanish, shamollash jarayonlarini rivojlanishini bartaraf etadigan "STEVIAMAR" oziq-ovqat qo'shilmasi yaratish;

Olingan oziq-ovqat qo'shilmalariga yangi TIF TN tovar kodlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida amarant o'simligining yangi "O'zbekiston-M", "Marhamat", "Ulug'nor" navlarining urug'i, moyi, barglari, steviya, sut qushqo'nmasi, mahsar dorivor o'simliklari barg va gullari asosida tayyorlangan "SKVALEAMIN NEO", "SKVALEMARIN", "STEVIAMAR" biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari hamda "Med House Clinic" davolash-profilaktika muassasasi bemorlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** "SKVALEAMIN NEO", "SKVALEMARIN", "STEVIAMAR" biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarining samaradorligini, ularning organoleptik, fizik-kimyoviy, texnik ko'rsatkichlarini aniqlash, texnik-me'yoriy xujjatlarini tayyorlash, ularning kimyoviy tarkibi asosida tegishli sinflarga ajratishdan iborat.

**Tadqiqot usullari:** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Andijon tajriba-ko'rgazma maydoni" da dorivor o'simliklarni tadqiq qilish va biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar usullari va biologik faol qo'shimachalarning toksik-gigiyenik xavfsizlik mezonlarini o'rganish bo'yicha zarur bo'lgan usullar hamda tadqiqotlarning fizik-kimyoviy usullari, gazoxromatografiya-mass-spektroskopiya, rentgen nurlari difraksiyasi, IQ-spektroskopiya usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** куйидагилардан иборат:

Amarantning "Ulug'nor" navi asosida markaziy asab tizimining faolligini saqlab turish uchun qonni kislorod bilan to'yintirishga yordam beradigan, ovqat hazm qilish traktining normallashtirishiga ijobiy ta'sir etadigan, ishtahani yaxshilaydigan "SKVALEAMIN NEO" oziq-ovqat qo'shilmasi yaratilgan;

Amarantning "Marhamat" navi asosida jigar va o't pufagining funksiyalarini qo'llab-quvvatlaydigan, ichak faoliyatini yaxshilaydigan va meteorizm hamda spazmlarni kamaytiradigan "SKVALEMARIN" oziq-ovqat qo'shilmasi yaratilgan;

Amarantning "O'zbekiston-M" navi asosida immun tizimining faolligini va atrof-muhitning noqulay omillariga organizmning qarshiligini oshiradigan, organizmning infeksiyalarga qarshi himoya kuchlarini rag'batlantiradigan va yallig'lanish, shamollash jarayonlarini rivojlanishini bartaraf etadigan "STEVIAMAR" oziq-ovqat qo'shilmasi yaratilgan;

Olingan biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari toksik emasligi va kundalik ratsionda ko'plab kasalliklar profilaktikasi uchun funksional ovqatlanishda foydalanish mumkinligi isbotlangan.

Olingan oziq-ovqat qo'shilmalariga yangi TIF TN tovar kodlari ishlab chiqilgan;

Yangi biologik faol qo'shilmalarni tovar holatiga keltirish hamda iste'molga chiqarish uchun texnik-me'yoriy xujjatlar to'plami yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:** "SKVALEAMIN NEO", "SKVALEMARIN", "STEVIAMAR" biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari uchun reseptlar, Ts 26821898-001:2018 tashkilot standarti, TI 26821898-001:2019 texnik yo'riqnomasi ishlab chiqilgan.

"SIFAT AGRO SERVIS" MChJ da "SKVALEAMIN NEO", "SKVALEMARIN", "STEVIAMAR" biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan.

"SKVALEAMIN NEO", "SKVALEMARIN", "STEVIAMAR" biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarining dorivor tarkibiy qismlarining biologik faolligi asosida Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi uchun yangi xalqaro tovar kodlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** yangi olingan biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarning tarkibidagi faol moddalarning tuzilishi va miqdorlari tadqiqotlarning fizik-kimyoviy usullari, skvalenning tuzilish va miqdorlarini gazoxromatografiya-mass-spektroskopiya, rentgen nurlari difraksiyasi, IQ-spektroskopiya usullaridan foydalanib aniqlangani, dorivor o'simliklarni tadqiq qilish va biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini tayyorlashda qo'llanadigan usullardan foydalanilganligi, samaradorlikni aniqlash va biologik faol qo'shilmalarning toksikologik-gigiyenik xavfsizlik mezonlarini o'rganish bo'yicha sohada kompetentli hisoblangan laboratoriyalarda tadqiqotlar o'tkazilganligi, olingan natijalarning e'lon qilinganligi, amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati amarant va boshqa dorivor o'simliklar asosida ishlab chiqilgan yangi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarining tarkibidagi faol moddalarning tuzilishi va miqdorlari tadqiqotlarning fizik-kimyoviy usullari, skvalenning tuzilish va miqdorlarini gazoxromatografiya-mass-spektroskopiya, rentgen nurlari difraksiyasi, IQ-spektroskopiya kabi zamonaviy usullardan foydalanib aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati amarant o'simligi asosida "SKVALEAMIN NEO", "SKVALEMARIN", "STEVIAMAR" biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari yaratilganligi, ularni ishlab chiqarish uchun retseptlar, tashkilot standarti, texnologik yo'riqnoma tuzilganligi hamda ularga tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Amarant o'simligi asosida yangi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari olish va ularni sinflash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Amarant va boshqa dorivor o'simliklar asosida ishlab chiqilgan "SKVALEAMIN NEO", "SKVALEMARIN", "STEVIAMAR" biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini "SIFAT AGRO SERVIS" MChJ da ishlab chiqarish uchun

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsatnoma berilgan (№000431, 2019 y.). Natijada, mazkur oziq-ovqat qo‘shimlarini ishlab chiqarish imkonini bergan.

Amarant va boshqa dorivor o‘simliklar asosida ishlab chiqilgan “SKVALEAMIN NEO”, “SKVALEMARIN”, “STEVIAMAR” oziq-ovqat qo‘shimlari uchun texnik shart (Ts 26821898-001:2018) va texnologik yo‘riqnoma (TI 26821898-001:2019) O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorati tomonidan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2018 yil 27 dekabrda 36-8/3270-son va 2019 yil 7 martda 36-8/685-son xatlari). Natijada, amarant o‘simligi asosida yangi turdagi oziq-ovqat qo‘shimlarini talab darajasida identifikatsiyalash va ishlab chiqarish imkonini bergan.

Amarant asosida ishlab chiqilgan “SKVALEAMIN NEO”, “SKVALEMARIN”, “STEVIAMAR” biologik faol oziq-ovqat qo‘shimlari tovar sifatida TIF TN bo‘yicha sinflanib, ularga “amarant asosida olingan oziq-ovqat qo‘shimchalari” uchun – 1212 99 950 1 va “amarantning maydalangan urug‘lari kukuni, yalpiz, saflor barglari va gullari asosida tayyorlangan biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalari, dori vositasi emas” uchun – 1212 99 950 2 xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilgan, hamda davlat bojxona amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Markaziy bojxona laboratoriyasining 2022 yil 1 iyuldagi 16/05-22-0368-son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur turdagi oziq-ovqat qo‘shimlarini eksport va import qilishda ulardan undiriladigan boj to‘lovlarini nazorat qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur dissertatsiya ishi natijalari jami 15 ta, shu jumladan 4 ta xalqaro, 11 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan. 2017 yilda o‘tkazilgan 10-Respublika innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasi (katalog 1.6.18 punkt “Dorivor amarant o‘simligidan olingan biologik faol va funksional oziq-ovqat qo‘shimlari”), O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2020 yil 7-fevral kuni №02-02/671-sonli xatiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi, shu jumladan Gujarat shtati o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 14-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2020 yil 25-26 fevral kunlari Andijon shahrida qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida tashkil etilgan “Agro Expo Andijon 2020” Andijon innovatsion g‘oyalar ko‘rgazmasida aprobatsiya qilindi va tegishli sertifikat olindi.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 45 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 15 ta maqola Respublika va 7 ta maqola Xalqaro jurnallarda, 1 ta monografiya nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 151 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yangi biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalari komponentlarining kimyoviy tarkibi va dorivorlik xususiyatlari, sinflash muammolari (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida amarant, steviya, sut qushqo'nmasi, mahsar o'simliklarining kimyoviy tarkibi, shifobaxshligi va ozuqaviy xususiyatlari, tibbiyotda va xalq tabobatida qo'llanilishi, ularning foydali xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tovarlar kimyosi ixtisosligining asosiy tamoyillari va ob'yektlari bo'yicha tushunchalar berilgan hamda dorivor o'simliklardan olingan yangi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovarlar nomenklaturasi bo'yicha sinflash muammolari yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Yangi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarining samaradorligini baholash (olingan natijalar muhokamasi)”** nomli ikkinchi bobida amarant urug'laridan ajratib olinadigan press-moyi miqdorining urug'namligiga bog'liqligini, amarant namunalarning yer ustki qismi uglevodlari va oqsillari miqdori hamda tarkibini aniqlash, amarant urug'i va shroti tarkibidagi oqsil miqdori hamda oqsil tarkibidagi aminokislotalarni aniqlash natijalari; amarant kunjarasini kompleks qayta ishlash usulini takomillashtirib polisaxaridlar, skvalen fraksiyasi va oqsil izolyatini ajratish, amarant kunjarasidan skvalen bilan boyitilgan ekstrakt olish natijalari; CO<sub>2</sub>-ekstraksiyadan keyin ekstraktidagi lipidlar va yog' kislotalari miqdorini kimyoviy tahlil qilish natijalari; “SKVALEAMIN NEO”, “SKVALEMARIN”, “STEVIAMAR” biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalarining samaradorligini va toksiko-gigiyenik xususiyatlarini aniqlash natijalari; yangi olingan biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalarining Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovarlar nomenklaturasida sinflanishi bo'yicha takliflar muhokama qilingan.

Amarant urug'laridan ajratib olinadigan press-moyi miqdorining urug'namligiga bog'liqligini aniqlashda urug'lari 0,6-0,7 mm li fraksiyalarda maydalanganlik darajasi optimal hisoblanadi. Moyliligi 6,4% bo'lgan urug'lar olingan. Urug'ning namligi 10-11% bo'lganda moyning chiqish unumi o'lchami 0,7 mm li fraksiyada 1,82-1,76 g ni, 0,6 mm li fraksiyada 1,79-1,72 g ni tashkil qildi (1-jadval).

Xom ashyoning namligiga qarab optimal zarracha kattaligiga ega fraksiyalardan press moyining chiqishi

Urug'lik fraksiyasi	Urug'ning namligi, %				
	9,0	10,0	11,0	12,0	13,0
	Press moyining chiqishi, g, (%)				
To'r o'lchami 0,7 mm bo'lgan elak	1,68 g (26,3%)	1,82 g (28,4%)	1,76 g (27,5%)	1,72 g (27,0%)	1,68 g (26,4%)
To'r o'lchami 0,6 mm bo'lgan elak	1,65 g (25,9%)	1,79 g (28,0%)	1,72 g (26,9%)	1,70 g (26,8%)	1,66 g (26,0%)

Amarant namunalarining yer ustki qismi uglevodlari va oqsillari miqdorini aniqlashda spirtida eruvchi uglevodlarni (SPEU), suvda eruvchi uglevodlarni (SEU), pektin moddalar (PM), gemitsellyulozalar ajratib olindi va miqdori aniqlandi (2-jadval).

Amarant namunalarining yer ustki qismlari uglevod kompleksi, massaga nisbatan % larda

Nav	Namuna	Natural uglevodlar	SPEU	SEU	PM	GMS	Kletchatka
Ulug'nor	Kunjara	69,6	3,5	51,5	4,1	3,3	7,2
	Shrot	64,3	3,1	43,4	7,9	2,7	7,2
	Bargi, novdasi	56,8	3,3	15,3	3,4	7,6	27,2
	Gulto'pi	33,4	1,2	16,4	5,1	7,5	3,2
Marhamat	Kunjara	67,9	3,5	50,5	4,1	2,8	7,0
	Shrot	62,4	3,0	42,2	7,8	2,4	7,0
	Bargi, novdasi	56,7	2,8	15,8	3,6	7,5	27,0
	Gulto'pi	32,9	1,1	16,4	5,0	7,4	3,0
O'zbekiston-M	Kunjara	63,7	3,8	51,8	4,8	3,3	7,2
	Shrot	61,5	3,0	41,5	7,5	2,5	7,2
	Bargi, novdasi	59,1	3,4	16,8	3,6	7,5	27,8
	Gulto'pi	33,7	1,5	16,4	5,1	7,4	3,3

Press kunjarada suvda eruvchi uglevodlar ko'proq bo'lib, ular oq rangdagi amorf suvda eruvchan kukundir. Polisaxaridlarning barcha namunalari gidrolizatlarida qog'oz xromatografiyasi metodi orqali glyukoza monosaxaridi mavjudligi aniqlandi. SEU gidrolizatlarida juda oz miqdorda ksiloza, arabinoza borligi ham ma'lum bo'ldi. PM va GMS gidrolizatlarida glyukouron kislotalari, arabinoza, ksiloza va galaktozalar izlari ham aniqlandi. SEU gidrolizatlarida glyukozaning mavjudligi polisaxaridlarning glyukan tipida ekanligidan dalolat beradi. Gidrolizatlarida kraxmalga xos xarakterli sifat reaksiyasi kuzatilmadi. Amarant yer ustki qismlarida uchraydigan uglevod kompleksiga miqdoriy va sifat

ko'rsatkichi bo'yicha tavsif berildi hamda kompleks tarkibida glyukan tipidagi suvda eruvchi uglevodlarning ustunligi ko'rsatildi.

Amarant urug'i va shroti tarkibidagi oqsil miqdori, hamda tarkibini aniqlash natijalariga ko'ra amarantning tadqiq etilgan barcha navlarida ularning urug'idan ko'ra, shroti tarkibida umumiy oqsil miqdori ko'p ekanligi isbotlandi. Bu esa, amarant shrotidan chorva hayvonlari uchun yuqori oзуqaviy qiymatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash yuqori samaradorlik keltirishiga asos bo'la oladi (3-jadval)

3-jadval

Amarant mahalliy navlari urug'lari umumiy oqsili, %

Nav	Umumiy oqsil	
Ulug'nor	urug'da	22,5
	shrotida	27,7
Marhamat	urug'da	21,9
	shrotida	26,5
O'zbekiston-M	urug'da	22,1
	shrotida	27,5

Umumiy oqsil tarkibidagi aminokislotalarni aniqlashda amarant urug'lari umumiy oqsili barcha almashinmaydigan aminokislotalarni tutishi va lizin, treonin, fenilalaninga boyligi aniqlandi, glyutelin fraksiyasi 66-68% ni, albumin fraksiyasi 45-46% ni tashkil etdi (4-jadval).

4-jadval

Amarant mahalliy navlari urug'lari umumiy oqsili fraksiya tarkibi, %

Nav	Umumiy oqsil fraksiyasi	
Ulug'nor	glyutelin	68
	albumin	46
Marhamat	glyutelin	67
	albumin	46
O'zbekiston-M	glyutelin	66
	albumin	45

Tadqiq etilgan barcha amarant navlarida glyutelin aminokislotalari miqdori, albuminlarga nisbatan sezilarli darajada ko'p ekanligi isbotlandi. Bu esa, mazkur amarant navlari asosida aminokislotalarga boy, inson salomatligi uchun foydali bo'lgan yangi oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratishga katta asos bo'lib xizmat qiladi.

Amarant kunjarasini kompleks qayta ishlash usulini takomillashtirish uchun undan avval suvda eriydigan polisaxaridlarni, so'ngra nam qoldiqdan – skvalen fraksiyasini va qolgan yog'siz kunjaradan – oqsil izolyatini ajratish amalga oshirildi (5-jadval).

5-jadval

Amarant Marhamat navi kunjarasini kompleks qayta ishlash sharoitlarining polisaxaridlar va skvalen fraksiyasi chiqish unumiga hamda undagi skvalen miqdoriga ta'siri.

Kunjarani qayta ishlash sharoitlari	SEU unumi, %	SF unumi, %	Skvalen miqdori, %	IEO unumi, %
1-tajriba				
I bosqich Ekstragent – suv, Hidromodul - 1:15, 1:10, Harorat - 80°C, Ekstraksiya vaqti - 2,5 soat	54	-	-	-
II bosqich Ekstragent - 20% KOH, Hidromodul 1:10 Harorat - 80°C, Ekstraksiya vaqti - 2 soat	-	0,42	25 (YQPX)	-
2-tajriba				
I bosqich Ekstragent – suv, Hidromodul - 1:15 , 1:10 Harorat - 50-55°C, Ekstraksiya vaqti - 2,5 soat	47.2	-	-	-
II bosqich Ekstragent - 40% KOH, Hidromodul - 1:4 Harorat - 80°C, Ekstraksiya vaqti - 2 soat	-	0,49	53,4 (YSSX)	3,18

Kunjarani qayta ishlash 2-tajribadagi sharoitlarda olib borish maqsadga muvofiqdir, bunda 47,2% suvda eriydigan uglevodlar, tarkibida 53,4% skvalen tutgan 0,49% fraksiya va 3,18% ishqorda eruvchi oqsillar (oqsil izolyati) olish ajratib mumkin.

Amarant kunjarasidan skvalen bilan boyitilgan ekstrakt olish uchun CO<sub>2</sub>-ekstraksiyasi sharoitlarini o'rganishni tajribalarida o'rtacha moylilik 4,0-4,8%, tarkibida skvalen miqdori 5,0-5,5% bo'lgan kunjara dan foydalanildi. Tajribalarda yuqori samarador suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) va yupqa qatlamli preparativ xromatografiya (YQPX) foydalanildi. YSSX yordamida xom ekstraktdagi skvalen miqdorini aniqlandi, shundan so'ng undan standart sifatida foydalanish uchun skvalenni ajratildi. Skvalen bilan boyitilgan fraksiyani olish uchun ekstraktdan sovunlanmaydigan moddalarni (SM) ajratildi va ularning tarkibi aniqlandi (6-jadval).

6-jadval


Amarant kunjarasini CO<sub>2</sub>-ekstraksiya qilish sharoitlarining ekstrakt unumiga va undagi skvalen miqdoriga ta'siri.

№	Sharoit	Tajribalar			
		1	2	3	4
1	Bosim, MPa	20-25	20-21	20-22	22-25

2	Harorat, °C	30-40	30-40	40-50	40-50
3	Ekstraksiya vaqti, min	90	60	60	60
4	Xom ekstraktning unumi, xom ashyoning og'irligiga nisbatan %	1,0	0,5	2,5	2,7
5	YuSSX ekstraktida skvalen, %	3,8	3,5	5,1	6,8
6	Ekstraktdan skvalen fraksiyalari, %	1,5	0,8	1,3	1,2
7	Fraksiyadagi skvalen, %	17,0	20,0	43,0	45,0

6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 3- va 4-tajribalardagi yuqori kritik CO<sub>2</sub>-ekstraksiya sharoiti sharoitida 1- va 2-tajribalarga nisbatan harorat yuqoriligi ekstraktorning flyuid holati deyarli 2 baravar ko'proq skvalen (6,8%) bo'lgan CO<sub>2</sub>-ekstrakti olishga imkon yaratib, yuqori mahsuldorlikka erishilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, skvalen miqdori kamida 6% bo'lgan amarant moyi farmakologik ta'sirga ega. Skvalenning standart namunasini olish uchun xom CO<sub>2</sub>-ekstraktiga bir marta benzin bilan ishlov berdik, ekstraktni filtrlab, filtratni bug'latdik va ekstrakt tarkibini, silikagelli kolonkada xromatografiyadan o'tkazdik, skvalenni benzin-efir (99,5:0,5) erituvchi tizimi bilan elyutsiya qildik. YuSSX standarti sifatida foydalanish uchun 95% sof skvalen oldik. 1-rasmda CO<sub>2</sub>-ekstrakti va skvalen standartining YuSSX xromatogrammalari ko'rsatilgan.

CO<sub>2</sub> Extract



CO<sub>2</sub>-ekstraksiyadan keyin ekstraktidagi lipidlar va yog' kislotalari miqdorini kimyoviy tahlil qilish skvalendan tashqari yog' kislotalari efirlari, tokoferollar, erkin yog' kislotalari, triterpenollar va fitosterollar borligini ko'rsatdi. CO<sub>2</sub>-ekstrakti sovunlanib, reaksiya mahsulotlaridan sovunlanmaydigan moddalar chiqarilgandan so'ng yog' kislotalari ajratildi, hamda gaz-suyuqlik xromatografiyasi yordamida tahlil qilindi (7-jadval).

7-jadval

Karbonat angidrid ekstraktining yog' kislotalari tarkibi

№	Yog' kislotasi	Kislotalarning massasiga nisbatan tarkibi, %		
		Ulug'nor	Marhamat	O'zbekiston-M
1	Palmitin, 16:0	26,34	22,76	23,93
2	Stearin, 18:0	3,70	3,75	3,39
3	Olein 18:1 + Linolein 18:3 (ω3)	33,94	35,58	35,73
4	Linol, 18:2 (ω6)	36,02	36,17	33,81
5	Araxin, 20:0	0,55	0,90	0,71
6	Begen, 22:0	0,28	0,49	0,35
7	Lignotserin, 24:0	0,28	0,35	0,37
To'yingan yog' kislotalari yig'indisi		31,15	28,25	28,75
To'yinmagan yog' kislotalarning yig'indisi		69,96	71,75	69,54

CO<sub>2</sub>-ekstrakti tarkibida paxta yog'ining yog' kislotalari tarkibida ham qayd etilgan to'yingan palmitin kislotasi 22% dan ortiq, 33-36% to'yinmagan olein va omega-6 linolein kislotalar va 1,13 % dan ortiq 20:0 - 24:0 seriyali yuqori molekulyar massadagi to'yingan kislotalar uchrashi kuzatildi.

**“SKVALEAMIN NEO”, “SKVALEMARIN”, “STEVIAMAR” biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalarining samaradorligini va toksiko-gigiyenik xususiyatlarini aniqlash natijalari**


“SKVALEAMIN NEO” biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasi tarkibiga quyidagilar kiradi: maydalangan amarant urug'lari kukuni, mahsar, sut qushqo'nmasi barglari va gullari.

“Ulug'nor” navining ozuqa moddalar, makro- va mikroelementlar miqdori jihatidan amarantning boshqa navlariga nisbatan ustun bo'lganligi mazkur yangi oziq-ovqat qo'shimchasini ishlab chiqarish imkonini berdi.

Tekshirish davomida tadqiqotning umumiy qon tahlili, umumiy siydik tahlili, elektrokardiogramma (2-rasm), bemorlardan anketa so'rovi nazorat usullari amalga oshirildi.

Biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasining qo'llash samaradorligi mezoni sifatida tajriba nazorat guruhidagilarda o'tkazilgan laboratoriya va funksional tadqiqotlar va anketa so'rovi natijalariga ko'ra shikoyatlarning jiddiyligi dinamikasi olindi.

Biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasining ta'sirini o'rganish jarayonida bemorlarning shikoyatlari nazorat qilindi, bemorlarning umumiy salomatligi va laboratoriya va funksional tadqiqotlar natijalari baholandi. Biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalarini qo'llash natijasida bemorlardagi charchoq, asabiylashish, shishishning pasayishi va umumiy kayfiyatning yaxshilanishi, bardamlilikning ortishi va qon bosimining normallasishi, shikoyatlarining kamayishi qayd etildi. Bemorlarda o'tkazilgan tadqiqotlar davomida nojo'ya ta'sirlar qayd etilmadi. Nazorat guruhidagi bemorlar biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasi terapiyasi olmadilar.



2-rasm. "SKVALEAMIN NEO" BFQ klinik tekshiruvlari natijasi

ST segmenti va T cho'qqisi qorinchalar miokardining repolyarizatsiyasini, P cho'qqisi yurakoldi miokardning depolyarizatsiyasi jarayonini, QRS kompleksi – qorinchalarning depolyarizatsiyasi jarayonlarini aks ettiradi.

ST segmenti EKG egri chizig'ining QRS kompleksining oxiri va T cho'qqisining boshlanishi o'rtasidagi segment bo'lib, u ikkala qorincha qo'zg'alishi bilan to'liq qoplangan yurak siklining davriga to'g'ri keladi.

T cho'qqisi – miokard repolyarizatsiyasini aks ettiradi, qorincha miokardining bo'shashishini ko'rsatadi.

P cho'qqisi – o'ng va chap yurakoldining depolyarizatsiya jarayonini aks ettiradi. Odatda, frontal tekislikda o'rtacha hosil bo'lgan yurakoldi depolyarizatsiya vektori (vektor P) standart chetlashishning II o'qiga deyarli parallel ravishda joylashgan va II, aVF, I va III chetlashish o'qlarining musbat qismlariga proyeksiyalanadi.

QRS kompleksi – qorincha depolyarizatsiyasi, Q, R va S cho'qqilaridan iborat. Q-T intervali – qorincha depolyarizatsiyasining boshlanishi va ularning repolyarizatsiyasi tugashi orasidagi vaqt. RR oralig'i – bu ikki kompleks orasidagi vaqt oralig'i.

"SKVALEAMIN NEO" biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasi qo'llangan tadqiqot jarayonida biologik faol qo'shimchasining markaziy asab tizimining faolligini saqlab turish uchun qonni kislorod bilan to'yintirishga yordam berishi, jigar va o't pufagining funksiyalarini qo'llab-quvvatlashi, ovqat hazm qilish


traktining normallashtirishiga hissa qo'shishi, ishtahani yaxshilashi, charchoqni yo'qotishi, bosh og'rig'ini qoldirishi, tonusni oshirishi, immunitetni ko'tarishi, sochlarning tabiiy rangini tiklashi, organizmga yoshartiruvchi ta'sir ko'rsatishi, impotensiya va frigidlikni davolashda yordam berishi bo'yicha ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

“SKVALEMARIN” biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasining tarkibiga quyidagilar kiradi: amarant va sut qushqo'nmasi moyi.

Amarant moyi vitaminlar, mikroelementlar va boshqa foydali moddalarga boy bo'lib, asosiy, eng muhim elementi skvalendir. Amarantning “Marhamat” navining kimyoviy tarkibida  $C_{17}H_{32}O_2$  – siklogeksankarbon kislota,  $C_{22}H_{43}NO$  – 3-dokozenamid,  $C_{17}H_{32}O$  – metil-8-geksadesin-1,  $C_{19}H_{36}O$  – 2-metil-Z,Z-3,1,3-oktadekadiyenoil,  $C_{30}H_{50}$  – skvalen miqdori boshqa navlarga nisbatan yuqori ekanligi, moyliligi va uning tarkibiga kiruvchi glitserinning faol shakli, to'yingan va to'yinmagan moy kislotalari miqdori boshqa navlardagiga qaraganda ko'pligi mazkur nav asosida yangi shifobaxsh oziq-ovqat qo'shimchasi ishlab chiqarish imkonini berdi.

“SKVALEMARIN” biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasi qo'llangan tadqiqot jarayonida biologik faol qo'shimchasining jigar va o't pufagining funksiyalarini qo'llab-quvvatlashi, ichak faoliyatini yaxshilashi va meteorizm hamda spazmlarni kamaytirishi, charchoqni yo'qotishi, bosh og'rig'ini qoldirishi, tonusni oshirishi, immunitetni ko'tarishi, sochlarning tabiiy rangini tiklashi, organizmga yoshartiruvchi ta'sir ko'rsatishi bo'yicha ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasining ta'sirini o'rganish jarayonida bemorlarning shikoyatlari nazorat qilindi, bemorlarning umumiy salomatligi va laboratoriya va funksional tadqiqotlar natijalari baholandi. Biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalarini qo'llash natijasida bemorlardagi charchoq, asabiylashish, shishishning pasayishi va umumiy kayfiyatning yaxshilanishi, bardamlilikning ortishi va qon bosimining normallashtirishi, shikoyatlarining kamayishi qayd etildi. Bemorlarda o'tkazilgan tadqiqotlar davomida nojo'ya ta'sirlar qayd etilmadi. Nazorat guruhidagi bemorlar biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasi terapiyasi olmadilar (3-rasm).




3-rasm. “SKVALEMARIN” BFQ klinik tekshiruvlari natijasi

“STEVIAMAR” BFQ tarkibiga quyidagilar kiradi: amarant gullari va barglari, steviya, sut qushqo‘nmasi barglari.

Amarantning “O‘zbekiston-M” navining gullari va barglaridagi ekstraktiv moddalarning yuqori biologik faollikka ega ekanligi mazkur oziq-ovqat qo‘shilmasini yaratish imkonini berdi.

Biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchasining ta‘sirini o‘rganish jarayonida bemorlarning shikoyatlari nazorat qilindi, bemorlarning umumiy salomatligi va laboratoriya va funksional tadqiqotlar natijalari baholandi. Biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalarini qo‘llash natijasida bemorlardagi charchoq, asabiylashish, shishishning pasayishi va umumiy kayfiyatning yaxshilanishi, bardamlilikning ortishi va qon bosimining normallasishi, shikoyatlarining kamayishi qayd etildi (4-rasm).

“STEVIAMAR” biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchasi qo‘llangan tadqiqot jarayonida biologik faol qo‘shimchasining immun tizimining faolligini va atrof-muhitning noqulay omillariga organizmning qarshiligini oshirishi, organizmning infeksiyalarga qarshi himoya kuchlarini rag‘batlantirishi va yallig‘lanish, shamollash jarayonlarini rivojlanishi bartaraf etishi, charchoqni yo‘qotishi, bosh og‘rig‘ini qoldirishi, tonusni oshirishi, sochlarning tabiiy rangini tiklashi, organizmga yoshartiruvchi ta‘sir ko‘rsatishi, impotensiya va frigidlikni davolashda yordam berishi bo‘yicha ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.



4-rasm. “STEVIAMAR” BFQ klinik tekshiruvlari natijasi

**“SKVALEAMIN NEO”, “SKVALEMARIN”, “STEVIAMAR” biologik faol qo‘shimchalarining toksiko-gigiyenik xususiyatlarini aniqlash natijalari**  
“SKVALEAMIN NEO”, “STEVIAMAR” va “SKVALEMARIN” biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalari oq kalamush oshqozoniga bir marta yuborilgandagi o‘rtacha o‘lim chaqiruvchi dozasi 5000 mg/kg dan yuqori bo‘lib, xavfliligi kam bo‘lgan 6-sinf moddalariga kiradi. “SKVALEAMIN NEO”, “STEVIAMAR” va

“SKVALEMARIN” biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalari o‘tkir zaxariligi, ya’ni o‘rtacha o‘lim chaqiruvchi dozasi (LD<sub>50</sub>) ni aniqlash tajribasi oq kalamushlarda o‘tkazildi (8-jadval).

8-jadval

Biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalarining 5000 mg/kg dozada hayvonlar oshqozoniga bir marta yuborilgandagi o‘lim holatini kuzatish natijalari

Biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchasi nomi	Doza, mg/kg	Kuzatish kunlari va umumiy hayvonlarning o‘lgan hayvonlar soniga nisbati								Jami o‘lgan hayvonlar soni
		1-kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun	6-kun	14-kun	21-kun	
“SKVALEAMIN NEO”	5000	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	0
“STEVAMAR”	5000	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	0
“SKVALEMARIN”	5000	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	6/0	0

“SKVALEAMIN NEO”, “STEVAMAR” va “SKVALEMARIN” biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalarining teriga mahalliy ta’sirini o‘rganish uchun vazni 320-360 g bo‘lgan dengiz cho‘chqalari tanlab olindi.

“SKVALEAMIN NEO”, “STEVAMAR” va “SKVALEMARIN” biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalari teriga bir marta ta’sir ettirilganda mahalliy o‘zgarishlar (qizarish 0 ball, shish 0 ball) keltirib chiqarmadi va ular maxsus tasnifga binoan terida yallig‘lanish (ta’sirlanish) chaqirmaydigan moddalar toifasiga kiradi, ya’ni terida mahalliy o‘zgarishlar chaqirmasligi aniqlandi.

Dengiz cho‘chqalarida “SKVALEAMIN NEO”, “STEVAMAR” va “SKVALEMARIN” biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalari teri orqali so‘rilish xususiyati ham o‘rganildi. Kuzatuv davrida ta’sir mezoni sifatida hayvonlarning xatti-harakati, ovqat-suvga bo‘lgan ehtiyojini o‘zgarishi, tashqi ko‘rinishidagi o‘zgarishlar, siydik rangi, ko‘z ajratmasining ortishi, yurak urishi va nafas olish maromi kabi ko‘rsatkichlar olindi.

Tajriba natijalarining ko‘rsatishicha, sinalgan biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalari tajriba hayvonlarida barcha tekshirilgan ko‘rsatkichlarda o‘zgarishlar keltirib chiqarmadi va ularning xatti-harakati nazorat guruhi hayvonlarinikidan farq qilmadi.

